

O‘zbekiston Respublikasi  
adliya vazirining  
2023-yil \_\_\_-yanvardagi  
\_\_\_-um-son buyrug‘iga  
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, hududiy adliya organlari va muassasalarida favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish hamda harakat qilish yuzasidan tayyorgarligi bo‘yicha 2022-yil uchun

## **TASHKILY KO‘RSATMALAR**

Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, adliya organlari va muassasalaridagi fuqaro muhofazasi tuzilmalari kuch va vositalarining doimiy shayligini ta‘minlash, rahbariyat va xodimlarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish bo‘yicha 2023-yilning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, ishchi-xizmatchilarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish;

yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

adliya organlari va muassasalari rahbarlari tomonidan ishchi-xizmatchilar xayotiga va salomatligiga xavf soluvchi avariya holatlarini oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rilishini ta‘minlash;

fuqaro muhofazasi tuzilmalarining kuch va vositalarini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash;

fuqaro muhofazasi tuzilmalarini zamonaviy talablarga javob beradigan qutqaruv asbob-uskunalar va himoya vositalari bilan ta‘minlash;

zaruriyat yuzaga kelgan hollarda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi borasidagi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini kengaytirish;

Toshkent davlat yuridik universiteti, Yuridik texnikumlarda favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha o‘qitiladigan fanlarning mazmunan uzviyligini ta‘minlagan holda tegishli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, bir yilda bir marotaba “Fuqaro muhofazasi kuni”ni o‘tkazish;

Asosiy e‘tiborni shaxsiy tarkibning normativ-huquqiy hujjatlarni chuqur o‘rganishga, ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy bilim va ko‘nikmalari hamda sohaviy tayyorgarligini, kasbiy maxorati va jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratish lozim.

Adliya organlari va muassasalari tomonidan 2023-yil uchun asosiy tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma‘lumotlar 2023-yilning 1-iyuliga qadar hamda 2024-yil 10-yanvariga qadar vazirlikka taqdim etiladi.